



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

A.K.Shadmanov

«12» yanvar 2022 yil

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Rektorat kengashining

6-sonli BAYONI

Toshkent shahar

«12» yanvar 2022 yil

Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Rektorat kengashi a'zolari
(ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2019 yil 24 dekabrda 1030-sonli "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida" gi qarorining Toshkent tibbiyot akademiyasida bajarilishi holati.

Ma'ruzachi – Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori Azizova Feruza Lyutpillaevna.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta tashabbus yuzasidan talabalar bilan on-layn tarzda olib borilayotgan ishlar to'g'risida.

Ma'ruzachi – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Bobomuratov Turdikul Akramovich. (Ma'naviyat, ma'rifat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i **Xasanova Mashhura Abduvalievna**).

3. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2019 yil 24 dekabrda 1030-sonli "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida" gi qarorining Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o'rinlarda-Akademiya) bajarilishi holati - mavzusida Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova ma'ruza qildi. Ma'ruza axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2019 yil 24 dekabrda 1030-sonli qaroriga binoan Akademiyaning barcha ilmiy darajaga ega xodimlarning qo'shimcha haq to'lash uchun taqdim etilgan asoslovchi xujjatlarning haqqoniyligi qayta qarab chiqilishi hamda xulosa - taqdimnomalari (bayonnomalari ilova qilingan holda) reja-moliya bo'limiga tezkor taqdim etilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, fakultet dekanlari, Bosh xisobchi A.Sh.Yulchiev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov.

Muddat: 2022 yil yanvar.

1.2. Akademiyaning barcha fakultetlardagi tuzilgan ishchi gurux tomonidan ilmiy darajaga ega xodimlarning qo'shimcha haq to'lash uchun taqdim etilgan asoslovchi xujjatlari yilning har oyida muntazam ravishda tahliliy qarab chiqilishi va xulosalar taqdim etilishi yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022 yil davomida.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabr PQ-61-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga binoan Akademiyaning xalqaro hamda mahalliy reytingdagi o'rnini yaxshilashga hissa qo'shgan boshqaruv, professor-o'qituvchi, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarini qo'shimcha ravishda rag'batlantirish mezonlari bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A. Bobomuratov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i D.R.Sadikova, Xodimlar bo'limi boshlig'i F. X. Azizova, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musoxonov, Bosh xisobchi A.Sh.Yulchiyev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov, barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022 yil yanvar- fevral.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta tashabbus yuzasidan talabalar bilan on-layn tarzda olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida mavzusidagi Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor T.A.Bobomurotovning ma‘lumotlari axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma‘ruza matnda keltirilgan).

2.1. O‘zR OTMLarida talabalar uchun ta‘til vaqti uzaytirilganligidan unumli foydalanish maqsadida Akademiyada talabalarni bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish bo‘yicha masofaviy tarzda amalga oshirilayotgan ishlar (olimpiadalar, ko‘rik tanlovlar, onlayn musobaqalar) samaradorligi oshirilsin.

Mas‘ul: Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor T.A. Bobomuratov, Talabalarni turar joy bilan ta‘minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i Sh.Q.Adilov, barcha fakultet dekanlari.

Muddat: 2022 yil yanvar.

2.2. Akademiyaning moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan holda qo‘shimcha 4 va 5 bosqich talabalari bilan olib borilayotgan o‘quv-uslubiy, ma‘naviy-ahloqiy ishlarni tashkillashtirish maqsadida ularga tyutorlar birlashtirish yuzasidan takliflar kiritilsin.

Mas‘ul: Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor T.A. Bobomuratov, Reja–moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.G‘oipov, barcha fakultet dekanlari.

Muddat: 2022 yil yanvar.

3. Turli masalalar bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar qabul qilindi.

3.1. Barcha fakultet yig‘ilishlarida yilning har oyida muntazam ravishda professor-o‘qituvchilarning o‘quv, o‘quv-uslubiy va ilmiy ishlari bo‘yicha mahsulotlari ko‘rib chiqilishi ta‘minlansin. Shuningdek, Akademiya professor-o‘qituvchilarining salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022 yil davomida.

3.2. Akademiya talabalarining orasida iqtidorlilarni saralash, ilm va fanga yo‘naltirish hamda jozibadorligini ko‘rsatish maqsadida konferensiya, olimpiadalar va tanlovlar o‘tkazilishi bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin. Ta‘kidlab o‘tilsinki, bu ishlar ayniqsa, tibbiy – biologik fanlar kesimida olib borilishi ta‘minlansin.

Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i G.T. Djuraeva, barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022 yil davomida.

3.3. Akademiya professor-o‘qituvchilarining ilmiy va pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan xorijiy stajirovkalarga yuboriladigan nomzodlar bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022 yil davomida.

3.4. Akademiyaga moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruvda mustaqillik berilishi munosabati bilan barcha bo'lim va fakultetlar tomonidan takliflar kiritilishi yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor T.A. Bobomuratov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i D.R.Sadikova, Xodimlar bo'limi boshlig'i F. X. Azizova, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musoxonov, Bosh xisobchi A.Sh.Yulchiyev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov, barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022 yil davomida.


Qaror bir ovozdan qabul qilindi. Rektorat Kengashi o'z ishini yakunladi.

**Oliy ta'lim muassasasi
kengash kotibi**



G.A. Ismailova

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A. Boymuradov

Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor



F.L. Azizova

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor



T.A. Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh. Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i



Sh.Sh. Massavirov